

O‘ZBEKISTONDA YATT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Solijonova Oydinoy Ne‘matjon qizi

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo‘nalishi talabasi

oydinsolijonova4@gmail.com

Murodxujayeva Feruza Majidovna

Namangan davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari natijasida mulkiy munosabatlar va xo‘jalik yuritish shakllari tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu jarayonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati muhim o‘rin egallab, uning rivojlanishi iqtisodiy tizimning barqarorligiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijasida ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkor, shaxsiy tadbirkorlik, birgalikdagi tadbirkorlik, yakka tartibdagi faoliyat, tadbirkorlik, tadbirkorlik sub‘yekti.

Kirish

Yakka tartibdagi tadbirkorlik- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, uni tashkil qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to‘g‘risidagi nizom” bilan belgilanadi. Ushbu nizomga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmay amalga oshirishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.¹

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida ko‘plab qarorlar qabul qilinib, tobora takomillashtirilib borilmoqda (1-jadval).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori, 14.02.1995

(14th international scientific and practical conference)

O'zbekiston Respublikasida YTT sub'ektlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning xronologiyasi.²

(1-jadval)

t/r	Nomi	Mazmuni	Yil
1	Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 55-son. ³	Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi aks ettirilgan	1995
2	O'zbekiston respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risida nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 334-son ⁴	“yakka tartibdagi faoliyat” so'zlari bilan, “yakka tartibdagi tadbirkorlik” so'zlari bilan, “yuridik shaxs bo'lmasdan xususiy tadbirkor” so'zlari bilan, “jismoniy shaxsning o'z faoliyatini yuridik shaxs bo'lmasdan amalga oshiruvchi tadbirkor sifatida” so'zlari bilan, “yakka tartibdagi tadbirkorning” so'zlari bilan almashtirildi	1999
3	Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 347-son ⁵	Yakka tartibdagi tadbirkorlar ularga berilgan davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan faoliyat joyi va turi o'zgargan taqdirda bu haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organi va soliq organiga xabar berish tartibi	2001
4	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 357-son ⁶	Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida	2003
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan	Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 89 ta	2011

² Mualliflar tomonidan tayyorlangan.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori, 14.02.1995

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 334-son qarori, 07.07.1999

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 347-son qarori, 22.08.2001

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 357-son qarori, 20.08.2003

	faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 6-son ⁷	faoliyat turlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hodimlarni yollash huquqiga ega	
6	Tadbirkorlik sub'yektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 704-son. ⁸	Tadbirkorlik sub'yekti — jismoniy shaxs faoliyatini ixtiyoriy to'xtatish tartibi aks ettirilgan.	2019
7	Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4742-son. ⁹	Yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish tartibi	2020
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori , 707-son. ¹⁰	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan faoliyat turlari bo'yicha besh nafargacha hodimlarni yollash huquqi beriladi; yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlar elektron tartibda shaxsiy kabinet yoki mobil ilova orqali davlat soliq organlarida ro'yxatga qo'yiladi; yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mehnat daftarchasi yuritilmaydi	2021

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-son qarori, 07.01.2011

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 704-son qarori, 21.08.2019

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4742-son qarori, 08.06.2020

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 707-son qarori, 22.11.2021

9	Tadbirkorlik sub'yektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-21-son. ¹¹	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish	2023
10	Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-247 ¹²	Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari berish	2025

Dastlab yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan yoki foydalanish huquqi asosidagi mol-mulk mustaqil ravishda amalga oshirilgan. Keyinchalik, 2015-yilning 1-iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun o'rnatilgan stavkaning 30 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi.¹³ Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra ushbu faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ma'lum shartlar asosida 5 nafargacha bo'lgan hodimlarni yollashi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlar belgilangan tartibda bank hisobvarag'i ochgandan so'ng hodimlarni yollash huquqiga ega bo'ladi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlar elektron tartibda shaxsiy kabinet yoki mobil ilova orqali davlat soliq organlarida ro'yxatga qo'yiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mehnat daftarchasi yuritilmaydi, u bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida qaralmaydi va yakka tartibdagi tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas¹⁴.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21-son Farmoni, 10.02.2023

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-247-son qarori, [13.08.2025](#)

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4725-son Farmoni, 15.05.2015

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 707-son qarori, 22.11.2021

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 6-son qaroriga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 89 ta faoliyat turlari aks ettirilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib Vazirlar Mahkamasining 707-sonli qaroriga binoan ushbu qarorga o'zgartirish kiritilib, yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ulanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari 92 tani tashkil qildi.

Shuningdek, 2020-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4742-son qaroriga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish ularni davlat tomonidan ro'yxatdan o'tkazilayotganda (qayta ro'yxatga olinayotganda) tadbirkorlik faoliyatini olib borish joyi bo'yicha amalga oshirilishi, yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma unda yakka tartibdagi tadbirkorning fotosurati aks ettirilgan holda berilishi, yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilariga yollanib ishlash asosida mehnat faoliyatini olib boruvchi shaxslar uchun o'rnatilgan soliqqa tortish tartibini tadbqiq qilish haqida ko'rsatib o'tilgan.

Asosiy qism.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida" gi qonunga muvofiq, Yakka tartibdagi tadbirkorlik o'z navbatida 2 turga bo'linadi:

Shaxsiy tadbirkorlik;

Birgalikdagi tadbirkorlik.

Shaxsiy tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorning o'zi tomonidan mulk huquqida, shuningdek mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Shaxsiy tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalangan hollarda, agar qonunlarda yoki nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik shakllariga quyidagilar kiradi:

er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, shu jumladan dehqon xo'jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dehqon xo'jaligi;

oddiy shirkat.

Er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish muomalasida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan er-xotindan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish paytida tasdiqlanishi lozim.


Tadbirkorlik faoliyati obykti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bogʻliq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalasiga kirishishi boshqa mulkdorlarning notarial tasdiqlangan roziligi bilangina bajariladi.¹⁵

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga doir yana bir muhim oʻzgarish shuki, 2024-yildagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 758-son qaroriga muvofiq xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan faoliyat faqat bitta manzil boʻyicha shoxobchada amalga oshiriladi.¹⁶

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning natijasini yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni muntazam ortishidan koʻrish mumkin (1-diagramma).

Oʻzbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda YTT subʼyektlari sonining oʻzgarish dinamikasi.¹⁷

(1-diagramma)



Diagrammadan kelib chiqib, 2024-yil yakka tartibdagi tadbirkorlar soni boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar Toshkent shahri (38729) va Samarqand viloyati (30454) yaʼni Oʻzbekiston Respublikasidagi jami YTT lar sonining Toshkent shahri 13,6%ini, Samarqand viloyati 10,7%ini, eng quyi koʻrsatkich Navoiy (7047) va

¹⁵ Oʻzbekiston Respublikasining 754-I-son Qonuni, 14.04.1999

¹⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 758-son qarori 14.11.2024


¹⁷ Siat.stat.uz saytidan olinib mualliflar tomonidan shakllantirildi.

Sirdaryo (7502) viloyatlariga to'g'ri kelib, jami YTT lar sonining Sirdaryo viloyatida 2,6%ini, Navoiy viloyatida 2,5% ini tashkil qiladi. Navoiy viloyatida bu ko'rsatkichning pastligiga sabab viloyat iqtisodiyotining asosiy tuzilishi yirik konchilik, metallurgiya va kimyoviy sanoat majmualaridan tuzulganligidir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tarkibi turli yosh toifalaridan iborat bo'lib, bugungi kunga kelib ushbu toifalar doirasida YTT lar soni avvalgi yillarga nisbatan ortib bormoqda (2-diagramma).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soni (yosh guruhlari bo'yicha, kishi)¹⁸

(2-diagramma)



Yosh toifalari bo'yicha 2024-yil eng yuqori ulush (35-39) yosh va (30-34) yosh toifalaridagi yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'g'ri kelib, ushbu ko'rsatkich jami YTT lar sonining (35-39) yoshdagilar 15,9%ini, (30-34) yoshdagilar 14,9%ini, eng quyi ko'rsatkichlar (15-19) yosh va (65+) yosh toifasidagi tadbirkorlar bo'lib, (65+) yoshdagi tadbirkorlar jami YTTlar sonining 4,7%ini, (15-19) yoshdagilar 0,6% ini tashkil qiladi. Quvonarlisi shuki, birgina yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati doirasida (35-39) yoshdagi tadbirkorlar O'zbekiston Respublikasining shu yoshdagi jami aholisining 1,5%ini, (30-34)yoshdagi tadbirkorlar esa 1,3%ini tashkil qilib, aholining ushbu yosh toifalaridagi qatlamlari ish bilan ta'minlangan.¹⁹ Shuningdek, ba'zi bir yosh toifalari bo'yicha 2020-2024-yillar o'rtasidagi tafovut bir necha barobarni tashkil qilib, bu holat (65+) yoshdagi tadbirkorlar 6 barobarga, (15-19) yoshdagilar 4,6 barobarga, (60-64) yoshdagilar 3 barobarga ortgan.

¹⁸ Siat.stat.uz sayti orqali mualliflar tomonidan shakllantirildi.

¹⁹ Stat.uz sayti orqali mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, YTT faoliyati nafaqat O`zbekiston, balkim, barcha davlatlarda iqtisodiyotning o`ziga xos bo`gini bo`lib, serqiradir. U ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish bilan birga an`anaviy qishloq xo`jaligi, innovatsion raqamli sohalarni ham qamrab olishi mumkin. Eng kam mablag` bilan boshlash imkoniyati, soliq to`lash va hisobot tizimi yengilligi, daromad to`liq va tez faoliyat egasi tomonidan o`zlashtirilishi mazkur sohaga aholini oson jalb qiladi va bandlikni ta`minlashda muhim ro`l o`ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Kichik biznes va tadbirkorlik. Darslik. Axmedova. D.B. 2024-308
2. Tadbirkorlik huquqi. Sh. Ruzinazarov. Toshkent-2022
3. Xo`jalik (tadbirkorlik) huquqi – Q. R. To`xtaev.2021-yil
4. Tadbirkorlik huquqi.Darslik – mualliflar jamoasi. 2023–2024-yillar
5. Soliq.uz O`zbekiston Respublikasi Soliq Qo`mitasining rasmiy sayti.
6. Siat.stat.uz O`zbekiston Respublikasi rasmiy statistika sayti.
7. inv.uz O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining rasmiy sayti.
8. Stat.uz O`zbekiston Respublikasining rasmiy statistika sayti.
- 9.Gulnoz Iskandarovna. 2022, Methodology of comporative analysis. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, No 1 (42),180-189
10. Maxmudova D. Davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solish va qo`llab quvvatlashda xorij tajribasi. International scientific journalvolume I issue7.
11. S. B. Sattorova. F. B. Shakirova Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo`llab quvvatlash nazariyasi. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>